

Avtomobil Yo‘llarida Bolalar Bilan Sodir Etilgan Yo‘L Transport Hodisalari Oldini Olish

Hamroqulov Rasuljon Madraimovich

Toshkent davlat transport universiteti kata o‘qituvchisi

Abdusamatov Erkinjon Xalim o‘g‘li, Abdimurodov Shoxrux Sayfiddin o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrida sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari turlari va bolalar tahlili keltirilgan. Bolalar bilan sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarini kamaytirish bo‘yicha tadbirlar taklif etilgan.


Key points: yo‘l-transport hodisalari tahlili, bolalar, piyodalar.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, lekin ushbu yo‘nalishda ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, yo‘llarda harakat xavfsizligini yetarli darajada ta‘minlashga erishildi deb bo‘lmaydi. Sababi hali hanuz o‘limga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarining soni kamaymaganligi, yo‘l-transport hodisalari natijasida voyaga yetmaganlarning o‘limi va sog‘ligiga jiddiy xavf solayotganligi, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yilda qabul qilingan “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190- sonli qarori shular jumlasidandir. Qarorga ko‘ra, 2022-2025-yillarda avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish ustuvor maqsadlardan biri etib belgilangan.¹


O‘zbekiston Respublikasi hududida 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar fuqaro halok bo‘lgan. 2023 yilda bolalar bilan bog‘liq 1 794 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok bo‘lgan.²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yilda qabul qilingan “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190- sonli qarori

² <https://kun.uz/>



1-rasm. 2022-2023 yillarda Toshkent shahrida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarining turlari bo'yicha tahlili



2-rasm. 2022-2023 yillarda Toshkent shahrida bolalar bilan sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarini tahlili

Tahlillar natijasiga ko'ra 2022-yilga nisbatan 2023-yilda yo'l transport hodisalarining turlari bo'yicha piyodalarni bosib urib ketish 4 % ga o'sgan. Bolalar bilan sodir bo'lgan yo'l transport hodisasida ham o'sganligini (2-rasm) da ko'rishiz mumkin.

Transport vositalarining va piyodalar harakatini mutanosib tartibga solish qiyin. Harakatlanib borayotgan haydovchilar harakatiga ko'ra tartibga solish va meyorij rejimlarini hisoblashda piyodalar individual guruhlari barcha og'ishlar tabiiy hisoblash piyodalarning fiziologik omillarini hisobga olish qiyin bu vazifaning murakkabligini yana bir marta ta'kidlaydi.



3-rasm. Piyodalar harakatini tashkil etish usullari

Piyodalar harakatini tashkil etishning bir necha guruhga ajratish mumkin (1-rasm) :

Tashkiliy va texnik – yirik shahar sharoitida yo‘lovchilar oqimini har tomonlama o‘rganish uchun hisob-kitoblarni olib borish va xavfsizlik chora-tadbirlarini tashkiliy hamda piyodalar harakatni tartibga solishning texnik vositalarini ishlab chiqish yo‘llarini topish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;

Rekonstruktiv - yirik aholi markazlari piyoda xavfsizligini ta‘minlashning yo‘l infratuzilmasi tarmog‘ining ta‘sirini baholash va uni qayta loyihalashni rejalashtirish.

Ommaviy tadbirlar – YHXBB tomonidan tashkil etilgan piyodalarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan ommaviy tadbirlar.

Mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va bunda aholining hushyorligini oshirishga qaratilgan say-harakatlarda Harakat xavfsizligi tadbirining alohida o‘rni bor. Muhimi, bu an‘anaviy tadbir e‘tirofoga molik natijalar bersa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Masalan, bu borada o‘quv yurtlarida yoshlarga yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha boshlang‘ich bilim berilmoqda. Umumta‘lim maktablarida yosh harakat xavfsizligi inspektorlari va yosh avtoinspektorlar klublari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu klublar a‘zolarining harakat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etayotgani ular ishining samaradorligidan dalolat beradi. «Diqqat, bolalar!», «Ta‘til», «Diqqat, yo‘lovchi!», «Yashil chiroq» kabi tadbirlarning muntazam o‘tkazilayotgani bolalar va o‘smirlarga yo‘l qoidalari o‘yin shaklida, aniq vaziyatlar misolida tushuntirishga yordam berayapti. Bundan tashqari, barcha umumta‘lim maktablari va maktabgacha tarbiya muassasalarida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha maxsus o‘quv xonalari tashkil etilib yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha bilimlar berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yilda qabul qilingan “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190- sonli qarori
2. <https://yhxx.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi” Qonuni. Toshkent 2022 yil №172-sonli Qarori.